
TUMAN HOKIMINING NAVBATDAGI SAYYOR QABULI O'TKAZILDI



Tumanning 1-sektori binosida tuman hokimining navbatdagi qabuli o'tkazildi. O'tkazilgan navbatdagi sayyor qabulda tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev, tuman hokimi o'rinbosarlari, tuman tashkilot va korxonalaridan birlashtirilgan sektor ishchi guruhi a'zolari ishtirok etdilar. Tuman hokimining sayyor qabuliga kelgan Sohibkor mahalla fuqarolar yig'ini aholisi tuman hokimiga o'zlarining muammo va kamchiliklari xususida murojaat etdilar.

Tuman hokimiga mahalla fuqarolaridan asosan, tibbiyot masalalarida - operatsiya qilishda amaliy yordam ko'rsatish, moddiy kumak ko'rsatish, tadbirkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida yer maydonlari ajratib berish va bank krediti olinishida yordam ko'rsatish, uy-joyini ta'mirlashda amaliy va moddiy yordam ko'rsatish, mahalaldagi gaz, elektr va suv ta'minotidagi muammolarni yechilishida yordam ko'rsatish xususida murojaat etdilar.



Qabulda ishtirok etgan jismoniy va yuridik shaxslar vakillaridan jami 10 ta muammolar aniqlandi, ushbu muammolardan 5 tasi bartaraf etilib, shundan 5 ta muammolar huquqiy maslahatlar berish orqali tushuntirildi hamda tegishli korxonalar va tashkilotlarga yunaltirildi.

Qabul davomida aniqlangan murojaatlarni o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha muallifga ma'lum qilish uchun tuman hokimining, tuman hokimligining masalaga daxldor apparat xodimlari, korxonalar, tashkilot va bo'limlariga tegishli topshiriqlar berildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-08-27 17:09:46